

UO'T 598.2 (575.146)

## **BUXORO VOHASI AGROTSENOZLARIDA UYA QURUVCHI QUSHLAR SISTEMATIK RO'YXATI VA UCHRASH HOLATIGA DOIR MA'LUMOTLAR**

**Boymurod Normurotovich Doniyorov**

Buxoro davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrasi katta o'qituvchisi, Buxoro,  
E-mail: [b.n.doniyorov13051984@mail.ru](mailto:b.n.doniyorov13051984@mail.ru)

**Yakub Idrisovich Ametov**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrasi  
professori, b.f.d., Qoraqalpog'iston

### **ANNOTATSIYA**

Maqlolada mavzuning dolzarbligi, qushlarning umurtqalilar orasidagi o'mi, Buxoro vohasi agrotsenozlari qushlarining o'rganilish tarixiga doir ayrim ma'lumotlar, tanlangan mavzuga doir o'tkazilgan tadqiqotlarning muddati va ishni bajarishda hamda statsionar kuzatishlarni amalga oshirishda foydalaniyan zoologik, ornitologik, morfologik va statistic kabi usullar, Buxoro vohasi agrotsenozlarida tarqalgan uya quruvchi qushlarning zamonaviy tur tarkibi va sistematik ro'yxatini shakllantirishda turkumlar, oilalar va turlar kabi toksonomik birliklar tarzida keng kitobxonga mo'ljallab, lotin, rus va o'zbek tillarida ifodalangan. Buxoro vohasi agrotsenozlarida uya quruvchi muhofazaga muhtoj qush turlari aniqlanib, mamlakatimizda uchrovchi muhofaza talab qush turlari bilan taqqoslangan, Buxoro vohasida uchrovchi qushlar tur soni bilan uya quruvchi qushlar tur soni qiyosiy o'rganilib, farqli jihatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro, voha, agrotsenoz, qush, sistematika, umurtqalilar, tadqiqot, statsionar, uya, tur.

### **ABSTRACT**

The article gives some information on the relevance of the topic, the place of birds among vertebrates, the history of the study of Birds of the Bukhara Oasis agrotsenoses, the duration of studies on the selected topic and methods such as zoological, ornithological, morphological and statistical methods used in the performance of work and stationary observations, the modern species composition and systematic list of nesting birds In the formation of a systematic list of nesting birds in the Bukhara Oasis, it is expressed in Latin, Russian and Uzbek, intended for a wide reader in the style of taxonomic units such as categories, families and species. The species of birds in need of nesting protection were identified in the agrotsenoses of the Bukhara Oasis and compared with the species of birds in demand for protection found in our country, the species number of nesting birds with the species number of birds found in the Bukhara Oasis was studied comparatively and different aspects were analyzed.

**Keywords:** Bukhara, oasis, agrotsenosis, bird, systematics, vertebrates, research, stationary, nest, species.

## KIRISH

Tarixiy taraqqiyot jarayoni oqibatida dunyo aholisi soni ortib bormoqda. Aholi soni miqdorining o'sishi insoniyat ehtiyojlari xilma-xillashishi va ko'لامи takomillashishiga olib kelmoqda. E'tiborli jihat shundaki, ehtiyojlarning sezilarli qismi antropogen landshaftlar hisobiga qondiriladi. Insoniyat tomonidan ehtiyojlarni qondirish yo'lida o'zgartirib, o'zlashtirilgan mavjud agrolandshaftlardan ham tabiiy voqeylekni tushunib, tabiat qonunlari bilan hisoblashgan holda samarali foydalanilyapti deb bo'lmaydi. Bu holat shu taqlid davom etadigan bo'lsa, qolgan tabiiylik xususiyatiga ega mavjud landshaftlarga ham inson ta'siri yetadi. Oqibatda biotoplarning o'rin almashishi, flora va faunaning o'zgarishi yanada kuchayadi. Bunday faoliyat agrotsenozlar muhitini, shuningdek, hayotiy jarayonlari agrotsenozlar bilan bog'liq bo'lgan uya quruvchi qushlarni ham chetlab o'tmaydi. Ayniqsa, uya quruvchi qushlarning tur tarkibi, shakllanish xususiyatlari, kelib-ketish maqomida o'zgarishlar kuzatiladi.

Mamlakatimizda qushlarni o'rganish boshlanganiga qarib ikki asr bo'lgan bo'lsa ham, voha qushlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan ornitologik tadqiqotlarni to'kis deb bo'lmaydi. Jumladan, O'zbekistonning cho'l zonasida joylashgan Buxoro vohasi agrotsenozlarida uya quruvchi qushlarining sistematik ro'yxati va uchrash holati maxsus o'rganilmagan. Yuqorida bayon qilingan fikr-mulohazalarimizdan kelib chiqib aytish mumkinki, tanlangan mavzuning hozirgi kunda dolzarligiga hech qanday shubha tug'ilmaydi. Buxoro vohasi agrotsenozlarida uya quruvchi qushlarning sistematik ro'yxati va uchrash holatiga oid tadqiqot ishlari 2006-2023 yillarda Buxoro vohasining paxtazor, bug'doyzor, daraxtzorlar va suvliklar va ularning atrofidagi ekotizmlarida mavjud fasllarda olib borildi. Materialning asosiy qismi Buxoro shahri, Jondor, Buxoro va Vobkent tumanlari hududlaridan hamda qisman Romitan, Kogon, Shofirkon, G'ijduvon tumanlaridan yig'ildi. Ishni bajarishda, statsionar kuzatishlarni amalga oshirishda zoologik, ornitologik, morfologik va statistik usullardan foydalanilgan.

## ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Ornitologiya tarixidan ham ma'lumki, ornitologik tadqiqotlarning aksariyati tabiiy landshaft ornitokomplekslarini o'rganishga bag'ishlangan. Madaniy landshaft qushlarini o'rganish, qushlarning tabiatda yoki inson xo'jaligidagi ahamiyatini baholash, turlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish, muammoli turlarning hatti-harakatini boshqarish hamda turlarda kechayotgan evolutsion jarayonlarning adaptiv mexanizmlarini aniqlash masalalari yetarli darajada o'rganilmagan (Xolboyev va boshq., 2021).

Agrotsenozlar qushlarining tur tahlili, biologiyasi va ekologik xususiyatlari hamda ahamiyatiga oid materiallar M.A. Abdullayev, S.B. Baqoyev, A.F. Fayziyev, I.K. Nazarovlar tomonidan 1994-yilda nashr qilingan Buxoro viloyatida uchraydigan nodir va O'zbekiston "Qizil kitob"iga kiritilgan o'simlik va hayvonlar nomli ilmiy ommabob risolasida ham uchraydi. Unda

21 qush turi muhofaza talabligi bayon qilingan bo‘lib, Kurakoyoqlilar turkumi Birqozonlar oilasiga mansub 2 tur, Qizilqanotsimonlar turkumi Qizilqanotlilar oilasiga mansub 1 tur, Laylaksimonlar turkumi Laylaksimonlar oilasiga mansub 2 tur, G‘ozsimonlar turkumi O‘rdaklar oilasiga mansub 3 tur, Lochinsimonlar turkumi Skopalar oilasiga mansub 1tur, Qarchig‘aylar oilasiga mansub 5 tur, Lochinlar oilasiga mansub 2 tur, Turnasimonlar turkumi Tuvaloqlar oilasiga mansub 3 tur, Kaptarsimonlar turkumi Bulduruqlar oilasiga mansub 1 tur, Chumchuqsimonlar turkumi Chumchuqlar oilasiga mansub 1 tur haqida ma’lumotlar uchraydi.

Bundan tashqari M.M. To‘rayev, F.R. Xolboyev, A.R. Rayimov, R.R. Rahmonovlarning 2015-yil Buxoro viloyati qushlari nomli ilmiy-uslubiy qo‘llanmasi nashrdan chiqdi. Qo‘llanmada Buxoro viloyati va unga chegaradosh hududlarda uchrovchi 332 tur qushlarning uchrash xususiyatiga ko‘ra guruhlari, sistematik ro‘yxati, maydon birligidagi zichligi bo‘yicha guruhlari va hudud ornitofaunasida bo‘layotgan o‘zgarishlar haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, M.M. To‘rayev, F.R. Xolboyev tomonidan 2016-yil Buxoro viloyatida uchrovchi nodir va kam sonli qushlar ekologiyasi nomi ostida ilmiy-uslubiy qo‘llanmasi nashrdan chiqdi. Qo‘llanmada Buxoro viloyati qushlari xilma-xilligi, 44 tur qushlarning mamlakatimiz “Qizil kitob”iga, 23 tur qushlarning Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqining “Yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostidagi turlar ro‘yxati”ga kiritilganligi, nodir qushlarning bioekologik tasnifi, viloyatda ta’sis etilgan muhim ornitologik hududlar, qushlar muhofazasiga doir tavsiyalar keltirilgan.

S.B. Bakayev, J.M. Yorqulov, B.N. Doniyorovlar 2009-yil Zag‘izg‘on (Pica pica, Baktriana Bonop) ning Buxoro shahri sharoitida uya qo‘yishga doir, B.N. Doniyorov 2010-yil Buxoro shahri sharoitida qumri (Streptopelia decaocto) ning biologiyasiga doir, B.N. Doniyorov 2011-yil Buxoro shahrida maynaning uchrashi, ko‘payishi va sonini boshqarish masalalariga doir, B.N. Doniyorov, B.Y. Jumaboyevlar Musicha (Streptopelia senegalensis. L.) ning biologiyasi va ekologiyasiga doir, B.N. Doniyorov 2012 Qumrining biologiyasi va ekologik xususiyatlariga doir ma’lumotlarni ornitologlar tomonidan e’lon qilingan ilmiy ishlarda ko‘rish mumkin.

## NATIJALAR

Qushlar umurtqali hayvonlar bo‘lib, tur xili bo‘yicha baliqlardan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Buxoro vohasi agrotsenozlari qushlarini faunistik o‘rganish orqali hayotiy jarayonlari agrotsenozlar bilan bog‘liq 95 tur uya quruvchi qushlar aniqlandi, sistematik ro‘yxati shakllantirilib, uchrash holati tahlil qilindi. Ma’lumotlardan zamonaviy qishloq xo‘jaligida va ovchilikda foydalanish mumkin. Buxoro vohasi agrotsenozlarida uya quruvchi qushlarining sistematik ro‘yxati va uchrash holati quyida 1-jadvalda ifodalanadi.

1-jadval

**Buxoro vohasi agrotsenozlarida uya quruvchi qushlarning sistematik ro‘yxati va uchrash holati**

T/r	Lotincha	Ruscha	O‘zbekcha	Uchrash holati
	nomlari			
<b>PODICIPEDIFORMES-ПОГАНКООБРАЗНЫЕ-QO‘NG‘IRSIMONLAR</b>				
<b>PODICIPIDAE-ПОГАНКОВЫЕ-QO‘NG‘IRLAR</b>				
1	Tachybaptus ruficollis	Малая поганка	Kichik qo‘ng‘ir	R
2	Podiceps cristatus	Чомга	Katta qo‘ng‘ir	R
<b>PELECANIFORMES-БЕСЛОНГОГИЕ-KURAKOYOQLILAR</b>				
<b>PHALACROCORACIDAE-БАКЛНОВЫЕ-QORAVOYLAR</b>				
3	Phalacrocorax carbo	Большой баклан	Katta qoravoy	R
4	Phalacrocorax pygmaeus	Малый баклан	Kichik qoravoy	R
<b>CICONIIFORMES-АИСТООБРАЗНЫЕ-LAYLAKSIMONLAR</b>				
<b>ARDEIDAE-ЦАПЛЕВЫЕ-QARQARALAR</b>				
5	Botaurus stellaris	Большая выпь	Katta ko‘lbuqa	BM
6	Ixobrychus minutus	Малая выпь, Волчок	Kichik ko‘lbuqa	BM
7	Nycticorax nycticorax	Кваква	Haqqush	BM
8	Casmerodius albus	Большая белая цапля	Katta oq qarqara	R
9	Egretta garzetta	Малая белая цапля	Kichik oq qarqara	BM
10	Ardea cinerea	Серая цапля	Kulrang qarqara	R
11	Ardea purpurea	Рыжая цапля	Jiyron qarqara	BM
<b>THRESKIORNITHIDAE-ИБИСОВЫЕ-IBISLAR</b>				
12	Platalea leucorodia	Колпица	Qoshiq burun	BM
13	Plegadis falcinellus	Каравайка	Qoravoy	BM
<b>ANSERIFORMES-ГУСЕОБРАЗНЫЕ-G‘OZSIMONLAR</b>				
<b>ANATIDAE-УТИНЫЕ-O‘RDAKLAR</b>				
14	Anser anser	Серый гусь	Kulrang g‘oz	BM
15	Cygnus olor	Лебедь-шипун	Vishildoq oqqush	R
16	Tadorna ferruginea	Огарь	Ang‘irt	BM
17	Tadorna tadorna	Пеганка	Suralay g‘oz	BM
18	Anas platyrhynchos	Кряква	Yovvoyi o‘rdak	R
19	Netta rufina	Красноносый нырок	Olmabosh	R
20	Aythya nyroca	Белоглазая чернеть	Oqko‘z o‘rdak	BM
<b>FALCONIFORMES-СОКОЛООБРАЗНЫЕ-LOCHINSIMONLAR</b>				
<b>ACCIPITRIDAE-ЯСТРЕБИНЫЕ-QARCHIG‘AYLAR</b>				
21	Milvus migrans	Черный коршун	Qora kalkat	BM
22	Circus aeruginosus	Болотный лунь	Soz bo‘ktargisi	R
23	Accipiter badius	Тювик	Toshqirg‘iy	BM
<b>FALCONIDAE-СОКОЛИНЫЕ-LOCHINLAR</b>				
24	Falco subbuteo	Чеглок	Jig‘oltoy	BM
25	Falco naumanni	Степная пустельга	Daşit mikkiysi yoki Kуйка	BM
26	Falco tinnunculus	Обыкновенная пустельга	Mikqij	R
<b>GALLIFORMES-КУРООБРАЗНЫЕ-TOVUQSIMONLAR</b>				
<b>PHASIANIDAE-ФАЗАНОВЫЕ-QIRG‘OVULLAR</b>				
27	Phasianus colchicus	Фазан	Qirg‘ovul	R
<b>GRUIFORMES-ЖУРАВЛЕОБРАЗНЫЕ-TURNASIMONLAR</b>				
<b>RALLIDAE-ПАСТУШКОВЫЕ-SUVMOSHAKLAR</b>				
28	Rallus aquaticus	Пастушок	Suvmoshak	R
29	Gallinula chloropus	Камышница	Suv tovug‘i	R
30	Fulica atra	Лысуха	Qashqaldoq	R
<b>CHARADRIIFORMES-РЖАНКООБРАЗНЫЕ-RJANKASIMONLAR</b>				
<b>CHARADRIIDAE-РЖАНКОВЫЕ-RJANKALAR</b>				
31	Charadrius dubius	Малый зуек	Kichik qorayoqa	BM
32	Charadrius alexandrinus	Морской зуек	Dengiz qorayoqasi	BM

33	<i>Vanellus vanellus</i>	Чибис	Qizzush	BM
34	<i>Vanellochettus leucura</i>	Белохвостая пигалица	Suv targ'oq	BM
<b>RECURVIROSTRIDAE-ШИЛОКЛЮВКОВЫЕ-BIGIZTUMSHUQLAR</b>				
35	<i>Himantopus himantopus</i>	Ходуличник	Qiziloyq	R
36	<i>Recurvirostra avosetta</i>	Шилоклювка	Bigitzumshuq	BM
<b>HAEMATOPODIDAE-КУЛИКИ-СОРОКИ-QIZILOYOQLAR</b>				
37	<i>Haematopus ostralegus</i>	Кулик-сорока	Zax loyxo'rak	R
<b>GLAREOLIDAE-ТИРКУШКОВЫЕ-JIQTQOQLAR</b>				
38	<i>Glareola pratincola</i>	Луговая тиркушка	O'tloq jiqtog'i	BM
<b>LARIDAE-ЧАЙКОВЫЕ-BALIQCHILAR</b>				
39	<i>Larus cachinnans</i>	Хохотунья	Oddiy chag'alay	BM
40	<i>Sterna hirundo</i>	Речная крачка	Daryo chigirtchisi	BM
41	<i>Sterna albifrons</i>	Малая крачка	Kichik chigirtchi	BM
<b>COLUMBIFORMES-ГОЛУБЕОБРАЗНЫЕ-KAPTARSIMONLAR</b>				
<b>PTEROCLIDIADAE-РЯБКОВЫЕ-BULDURUQLAR</b>				
42	<i>Pterocles orientalis</i>	Чернобрюхий рябок	Qorabovur bulduruq	BM
43	<i>Pterocles alchata</i>	Белобрюхий рябок	Oqbouvur bulduruq	BM
44	<i>Syrhaptes paradoxus</i>	Саджа	Suv bulduruq	BM
<b>COLUMBIDAE-ГОЛУБИНЫЕ-KARTARLAR</b>				
45	<i>Columba livia</i>	Сизый голубь	Ko'k kaptar	R
46	<i>Streptopelia decaocto</i>	Кольчатая горлица	Qumri	R
47	<i>Streptopelia turtur</i>	Обыкновенная горлица	Oddiy g'urrak	BM
48	<i>Streptopelia senegalensis</i>	Малая горлица	Musicha	R
<b>CUCULIFORMES-КУКУШКОБРАЗНЫЕ-KAKKUSIMONLAR</b>				
<b>CUCULIDAE-КУКУШКОВЫЕ-KAKKULAR</b>				
49	<i>Cuculus canorus</i>	Обыкновенная кукушка	Oddiy kakku	BM
<b>STRIGIFORMES-СОВООБРАЗНЫЕ-YAPALOQQUSHSIMONLAR</b>				
<b>STRIGIDAE-СОВИНЫЕ-YAPALOQQUSHLAR</b>				
50	<i>Bubo bubo</i>	Филин	Ukki	R
51	<i>Otus scops</i>	Сплюшка	Sog'	BM
52	<i>Otus brucei</i>	Буланая совка	Cho'l sog'i	BM
53	<i>Athene noctua</i>	Домовый сыч	Boyo'g'li	R
<b>APODIFORMES-СТРИЖЕОБРАЗНЫЕ-UZUNQANOTLAR</b>				
<b>APODIDAE-СТРИЖИНЫЕ-UZUNQANOTLAR</b>				
54	<i>Apus apus</i>	Черный стриж	Qora uzunqanot	BM
<b>CORACIIFORMES-РАКШЕОБРАЗНЫЕ-KO'KQARG'ASIMONLAR</b>				
<b>CORACIIDAE-СИЗОВОРОНКОВЫЕ-KO'KQARG'ALAR</b>				
55	<i>Coracias garrulus</i>	Сизоворонка	Ko'k qarg'a	BM
<b>ALCEDINIDAE-ЗИМОРОДКОВЫЕ-KO'KTARG'OQLAR</b>				
56	<i>Alcedo atthis</i>	Обыкновенный зимородок	Ko'ktarg'oq	R
<b>MEROPIDAE-ЩУРКОВЫЕ-KURKUNAKLAR</b>				
57	<i>Merops apiaster</i>	Золотистая щурка	Tilla rang kurkunak	BM
58	<i>Merops persicus</i>	Зеленая щурка	Ko'k kurkunak	BM
<b>UPUPIFORMES-УДООБРАЗНЫЕ-SASSIQPOPISHAKSIMONLAR</b>				
<b>UPUPIDAE-УДОДОВЫЕ-SASSIQPOPISHAKLAR</b>				
59	<i>Upupa epops</i>	Удод	Sassiqpopishak	BM
<b>PASSERIFORMES-ВОРОБЬИНООБРАЗНЫЕ-CHUMCHUQSIMONLAR</b>				
<b>HIRUNDINIDAE-ЛАСТОЧКОВЫЕ-QALDIRG'OCHLAR</b>				
60	<i>Riparia riparia</i>	Береговушка	Qirg'oq qaldirg'ochi	BM
61	<i>Hirundo rustica</i>	Деревенская ласточка	Qishloq qaldirg'ochi	BM
62	<i>Hirundo daurica</i>	Рыжепоясничная ласточка	Tuya qaldirg'och	BM
<b>ALAUDIDAE-ЖАВОРОНКОВЫЕ-SO'FITO'RG'AYLAR</b>				
63	<i>Galerida cristata</i>	Хохлатый жаворонок	So'fito'rg'ay	R
<b>MOTACILLIDAE-ТРЯСОГУЗКОВЫЕ-JIBLAJIBONLAR</b>				
64	<i>Motacilla feldegg</i>	Черноголовая трясогузка	Qoraboshli jiblajibon	BM

<b>65</b>	<i>Motacilla alba</i>	Белая трясогузка	Oq jiblajibon	<b>BM</b>
<b>66</b>	<i>Motacilla personata</i>	Маскированная трясогузка	Niqobli jiblajibon	<b>BM</b>
<b>LANIIDAE-СОРОКОПУТОВЫЕ-QARQUNOQLAR</b>				
<b>67</b>	<i>Lanius schach</i>	Длиннохвостый сорокопут	Uzun dumli qarqunoq	<b>BM</b>
<b>68</b>	<i>Lanius minor</i>	Чернолобый сорокопут	Qora peshonali qarqunoq	<b>BM</b>
<b>ORIOLIDAE-ИВОЛГОВЫЕ-ZARG'ALDOQLAR</b>				
<b>69</b>	<i>Oriolus oriolus</i>	Обыкновенная иволга	Zarg'aldoq	<b>BM</b>
<b>STURNIDAE-СКВОРЦОВЫЕ-CHUG'URCHUQLAR</b>				
<b>70</b>	<i>Sturnus vulgaris</i>	Обыкновенный скворец	Oddiy chug'urchuq	<b>R</b>
<b>71</b>	<i>Acridotheres tristis</i>	Обыкновенная майна	Mayna	<b>R</b>
<b>CORVIDAE-ВРАНОВЫЕ-QARG'ALAR</b>				
<b>72</b>	<i>Pica pica</i>	Сорока	Zag'izg'on	<b>R</b>
<b>73</b>	<i>Podoces panderi</i>	Саксаульная сойка	Xo'ja savdogar	<b>R</b>
<b>74</b>	<i>Corvus monedula</i>	Галка	Zag'cha	<b>R</b>
<b>75</b>	<i>Corvus frugilegus</i>	Грач	Go'ng qarg'a	<b>R</b>
<b>SYLVIIDAE-СЛАВКОВЫЕ-MOYQUTLAR</b>				
<b>76</b>	<i>Locustella lusciniooides</i>	Соловийный сверчок	Bulbulnamo chirildoq	<b>BM</b>
<b>77</b>	<i>Acrocephalus scirpaceus</i>	Тростниковая камышевка	Qamishzor to'qay chumchug'i	<b>BM</b>
<b>78</b>	<i>Acrocephalus arundinaceus</i>	Дроздовидная камышевка	Qorayaloqsimon to'qay chumchug'i	<b>BM</b>
<b>79</b>	<i>Hippolais rama</i>	Южная бормотушка	Janub kurgalagi	<b>BM</b>
<b>80</b>	<i>Phylloscopus inornatus</i>	Пеночка-зарничка	-	<b>BM</b>
<b>TURDIDAE-ДРОЗДОВЫЕ-SHAQSHAQLAR</b>				
<b>81</b>	<i>Saxicola caprata</i>	Черный чекан	Qora sirchumchuq	<b>BM</b>
<b>82</b>	<i>Oenanthe oenanthe</i>	Обыкновенная каменка	Oddiy toshsirchumchuq	<b>BM</b>
<b>83</b>	<i>Oenanthe pleschanka</i>	Каменка-глещанка	-	<b>BM</b>
<b>84</b>	<i>Oenanthe finschii</i>	Черношейная каменка	Qorabo'yinli toshsirchumchuq	<b>BM</b>
<b>85</b>	<i>Oenanthe isabellina</i>	Каменка-плясунья	O'ynoqi toshsirchumchuq	<b>BM</b>
<b>86</b>	<i>Cercotrichas galactotes</i>	Тугайный соловей	To'qay bulbul	<b>BM</b>
<b>87</b>	<i>Luscinia megarhynchos</i>	Южный соловей	Janub bulbuli	<b>BM</b>
<b>PARADOXORNITHIDAE-СУТОРОВЫЕ, ТОЛСТОКЛЮВЫЕ СИНИЦЫ-YO'G'ONTUMSHUQ CHITTAKLAR</b>				
<b>88</b>	<i>Panurus biarmicus</i>	Усатая синица	Mo'yabdar chittak	<b>BM</b>
<b>PARIDAE-СИНИЦЕВЫЕ-CHITTAKLAR</b>				
<b>89</b>	<i>Remiz pendulinus</i>	Обыкновенный ремез	Inuya	<b>BM</b>
<b>90</b>	<i>Remiz coronatus</i>	Черноголовый ремез	Qorabosh vahmaqush	<b>BM</b>
<b>91</b>	<i>Parus bokharensis</i>	Бухарская синица	Buxoro chittagi	<b>R</b>
<b>PASSERIDAE-ВОРОБЬИННЫЕ-CHUMCHUQLAR</b>				
<b>92</b>	<i>Passer domesticus</i>	Домовый воробей	Uy chumchug'i	<b>BM</b>
<b>93</b>	<i>Passer montanus</i>	Полевой воробей	Dala chumchug'i	<b>R</b>
<b>EMBERIZIDAE-ОВСЯНКОВЫЕ-DEHQONCHUMCHUQLAR</b>				
<b>94</b>	<i>Emberiza calandra</i>	Просянка	Tariqxo'r dehqonchumchuq	<b>BM</b>
<b>95</b>	<i>Schoeniclus schoeniclus</i>	Камышовая овсянка	To'qay dehqonchumchuq	<b>BM</b>

## MUHOKAMA

Buxoro vohasi agrotsenozlari qushlarining faunasi amaliy holati tahlil qilinib, 16 turkum 47 oilaga mansub 211 tur qush uchrashi aniqlandi. Shundan, jami 15 turkum, 36 oilaga mansub 95 tur qush uya quradi. Uya quruvchi qushlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi R-O'troq uya quruvchi (32 tur) qushlar bo'lib, Buxoro vohasida uchrovchi qushlarining 15,2 % ni, ikkinchisi BM-Uchib o'tuvchi-uyalovchi (63 tur) qushlar bo'lib, bu vohada uchrovchi qushlarning 29,9 % ni tashkil qiladi. 95 tur uya quruvchi qushlarning 10 turi mamlakatimiz "Qizil

kitobi” sahifalaridan o‘rin olgan bo‘lib, uch turi o‘troq uya quruvchi qushlar, yetti turi uchib o‘tuvchi-uyalovchi qushlardir. Bu “Qizil kitob”ga kiritilgan qush (52 tur) larning 19,2 % ni tashkil qiladi.

Buxoro vohasida uya quruvchi qushlarning 61 turini hayotiy jarayonlari asosan turli suvliklar va ularning atrofida o‘tsa, 34 turiniki bug‘doy dalalariga, 26 turiniki paxta dalalariga va 39 turiniki daraxtzorlarga bog‘liq. Uya qurib ko‘payuvchi qushlardan 14 turi yuqorida nomlari keltirilgan agrotsenozlarda uchrovchi evribiontlardir.

### XULOSA

Quyi Zarafshon hududida uya quruvchi qushlarini Buxoro vohasi misolida tadqiq qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki, vohada qushlar sinfining 15 turkum, 36 oilaga mansub 95 turi uya qurib ko‘payishda ishtirok etadi. Uyalovchi turlar o‘troq va uchib o‘tuvchi-uyalovchi turlarga bo‘lindi. Aniqlangan o‘n besh turkum orasida chumchuqsimonlar turkumi vakillari tur soni nisbatan ko‘pligi bilan dominantlik qilsa, tovuqsimonlar, kakkusimonlar, uzunqanotlar va sassiqpopishaksimonlar turkumlari vakillari tur soni kamligi bo‘yicha vohada uy quruvchi qushlar orasida dominatligi aniqlandi.

Muxtasar qilib aytganda, tarixiy taraqqiyot jarayonida uya quruvchi turlar bilan agrotsenozlar orasida ma’lum muvozanat shakllangan bo‘lib, bu ko‘zga ko‘rinmas muvozanat aholi soni ko‘payib borayotgan ayni damda insonlar uchun to‘kin hayot garovidir. Zamонавиқ qishloq xo‘jaligini bunyod qilishda, qushlar va agrotsenozlar mutanosibligini to‘g‘ri, ekologo-geografik holatdan kelib chiqib tashkil qilish lozim. Aks holda qaysidir bir turning ko‘payishi boshqa bir turning kamayishiga olib keladi. Bu esa, vohadagi ziroatchilik, ovchilik va baliqchilikda iqtisodiy jihatdan qimmatga tushishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Абдуллаев, М.А., Бақоев, С.Б., Файзиев, А.Ф., Назаров, И.К. (1994). Бухоро вилоятида учрайдиган нодир ва Ўзбекистон <<Қизил китоби>>га киритилган ўсимлик ва ҳайвонлар, Бухоро.
2. Азимов, Ж.А. ва бошқ. (2019). Ўзбекистон Республикасининг “Қизил китоби” II жилд. Тошкент.
3. Бакаев, С.Б., Салимов, Х.В. (1990). Гнездование некоторых видов птиц в низовьях р. Зарафшана. Редкие и малоизученные птицы Средней Азии, III, 99-101.
4. Doniyorov, B.N. (2021). Materials on the biology of *Streptopelia decaocto* Friv 1838 in Bukhara region. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research, 11, (2), 47-56.
5. Дониёров, Б.Н. (2010). Бухоро шаҳри шароитида қумри (*Streptopelia decaocto*) нинг биологияси. Экалогия Хабарномаси, 5, 14-15.
6. Дониёров, Б.Н., Жумабоев, Б.Е. (2011). Мусича (*Streptopelia senegalensis* L.) нинг биологияси ва экологиясига оид маълумотлар. Профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг XXVI илмий-амалий конференция материаллари тўплами, III, 167-169.

7. Doniyorov, B.N. (2015). Musicha (*Streptopelia senegalensis* Linnaeus) ning biologiyasi va ekologiyasiga doir ma'lumotlar (Buxoro viloyati misolida). Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 3, 49-52.
8. Doniyorov, B.N. (2016). Buxoro shahri sharoitida uya qiluvchi qushlar. Актуальные научные исследования в современном мире Сборник научных трудов, 3, 10-18.
9. Doniyorov, B.N. (2018). Turizm sohasida ahamiyatli Buxoro viloyati agrotsenozlaridagi manzarali va sayroqi qushlar. Бухоро вилоятининг туристик ва инвестицион салоҳияти, 169-173.
10. Митропольский, О.В., Митропольский, М.Г. (2009). Список птиц Узбекистана, Ташкент.
11. Тўраев, М.М., Холбоев, Ф.Р. (2016). Бухоро вилоятида учровчи нодир ва кам сонли қушлар экологияси. Бухоро.“Дурдана”.
12. Тўраев, М.М., Холбоев, Ф.Р., Райимов, А.Р., Раҳмонов, Р.Р. (2015). Бухоро вилояти қушлари.-Т.: “Наврӯз”.
13. Холбоев, Ф.Р., Тўраев, М.М., Раҳимов, М.Ш. (2021). Орнитология. Т.: “Университет”.